

OILA A'ZOLARINING SALOMATLIGIGA E'TIBOR BERISH

Mas'uliyatli ota-ona o'z salomatligiga ham e'tiborli bo'lib, har yili tibbiy ko'rikdan o'tib turishi va salomatligini yaxshi holatda saqlashi lozim. Faqat o'zlarining namunalari orqali ota-onalar farzandlariga sog'lom turmush tarzini o'rgatishlari mumkin.

IJTIMOY-MAISHIY VA MODDIY BARQARORLIK

Farzand rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish zarur, chunki shunday muhit bo'lmasa, bu ishni amalga oshirish qiyin bo'ladi.

Oila a'zolari orasida ota-ona va farzand, turmush o'rtoqlar yoki avlodlar o'rtasida doimiy kelishmovchiliklar bo'lmasligi kerak.

Odatda farzand oiladagi "tinchlik saqlovchisi" rolini o'ynaydi va har qanday nizoni og'ir qabul qiladi. Bunda rivojlanishi lozim bo'lgan ko'nikmalar ikkinchi darajaga o'tib qoladi. Farzand oilaviy kelishmovchiliklardan qochish uchun butunlay oilaga qaram bo'lib qoladi va uning o'qishdagi muvaffaqiyatsizligi, uydan qochishi, itoatsizligi yoki norozilik bildiruvchi xatti-harakatlar bu alomat bo'lishi mumkin.

OTA-ONA BIR XIL TARBIYA USULIDAN FOYDALANISHI LOZIM

Bolalar ota-onalar orasidagi har qanday nomutanosiblikni sezadilar. Agar ota talabchan bo'lsa, ona esa hamma narsaga ruxsat bersa, farzand tezda bu ikki yo'nalish o'rtasida muvozanat topadi va xulqida muammolar paydo bo'lishi muqarrar. Farzandni tarbiyalashda oila a'zolarining izchilligi muhim. Oila qoidalari barcha uchun bir xil bo'lishi kerak va bu qoidalar ota-ona tomonidan birgalikda qabul qilinib, butun oila tomonidan bajarilishi lozim.

“
"Oilaviy hayotning
asosiy ma'nosi va
maqsadi — farzandlar
tarbiyasi. Farzandlar
tarbiyasining asosiy
maktabi — er va
xotin, ota va ona
o'rtasidagi
munosabatlardir."
”



**MAS'ULIYATLI
OTA-ONALIK, BU...**

MAS'ULIYATLI OTA-ONALIK, BU...

Farzandingizni dunyoga keltirishdan avval o'zingizga shunday savolni bering:

“

"Bolam tug'ilganidan boshlab uning barcha quvonch va tashvishlarini o'z zimmamga olishga, unga mas'uliyatli ota yoki ona bo'lishga tayyormanmi?"

”

Faqat oila va ota-onalik masalalariga ongli yondashilgandagina farzandlarimiz baxtli va barkamol bo'lib o'sishi mumkin.

Ota-onalar farzandlarining hayoti, kelajagi haqida ko'proq o'ylashadi. Ammo har bir kishi haqiqatan ham mas'uliyatli ota-ona bo'la oladimi? Aql va mehribonlik har doim ham mas'uliyat degani emas. "Mas'uliyatli ota-onalik" tushunchasini qanday baholaymiz? Siz ota yoki ona sifatida qanchalik mas'uliyatlisiz? Qaysi masalalar haqida o'ylashingiz lozim?

MAS'ULIYATLI OTA-ONALIK NIMA?

Mas'uliyatli ota-ona avvalo o'z hayoti va harakatlari uchun javob bera oladigan yetuk shaxs bo'lishi kerak. Agar inson o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli bo'lmasa, qanday qilib farzandi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin?

Shuningdek, mas'uliyatli ota-onalik ota va onaning farzandi uchun turli xil tarbiyaviy, ta'limiy va sog'liq bilan bog'liq amaliyotlarni tanlashda ongli va faol yondashuvni anglatadi.

Shunday qilib, mas'uliyatli ota-onalik — bu tarbiyaning har bir jabhasini o'zaro muvozanatli olib borish demakdir!

MAS'ULIYATLI OTA-ONALIKNING USTUVOR JIHATLARI

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalar quyidagi omillarni muhim deb hisoblaydilar:



“

- Farzandning salomatligini va hayotini asrash
- Farzandni kiyim-kechak va ozuqa bilan, shuningdek, sifatli ta'lim olishini ta'minlash
- Farzandga e'tiborli munosabatda bo'lish, birga vaqt o'tkazish va doimiy muloqot qilish
- Oilada ishonchli muhit yaratish orqali yomon odatlarning rivojlanishining oldini olish
- Qiyin vaziyatlarda farzandni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish

”



MAS'ULIYATLI OTA-ONANING VAZIFALARI



QANDAY QILIB MAS'ULIYATLI OTA-ONA BO'LISH MUMKIN?

Ota-onalar farzandlari bilan **birgalikda dam olishga vaqt ajratishlari lozim**, chunki oila muhitidagi tinchlik va osudalik har bir farzandning barqaror ruhiy holatiga asos bo'ladi. Har hafta oxirida oilaviy sayohatlar uyushtiring yoki teatr, sirk, hayvonot bog'i kabi madaniy tadbirlarga boring. Farzandingiz bilan o'yinlar o'ynang, uning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiling va kerak bo'lganda maslahat bering.

Zamonaviy hayotda har bir kun qattiq reja bilan o'tishi mumkin, ammo shunga qaramay, **farzand bilan vaqt o'tkazishga doim vaqt topish lozim**. Har kuni kamida yarim soat farzandingiz bilan suhbatlashishga harakat qiling.

Kundalik oilaviy odatlarni joriy qilishni o'ylab ko'ring, masalan, kechki ovqat paytida barcha bir stol atrofida yig'ilib, har bir kishi o'tgan kuni haqidagi hissiyotlari bilan o'rtoqlashishi mumkin. Bu farzandingizning hayotida bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lishga yordam beradi va shu bilan birga, nozik tarzda o'z tajribangizni ulashish imkonini beradi.

Ota-onalar farzandlariga yaxshilik va yomonlik, rostgoylik va yolg'onning farqini o'rgatib, **milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirishlari lozim**. Bu qadriyatlar oila va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarda muhim o'rinni tutishi kerak.